



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 2-may, payshanba,
52 (23.929)-son

**KUN
HIKMATI**

Kibrlining
jussasi
soya
bermaydi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

SINGAPUR delegatsiyasi Samarqandda

III Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Singapur parlamenti spikeri Sea Kian Peng O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari S.Safoyev hamrohligida kecha Samarqandda bo'ldi.



Mehmonlarni Samarqand temiryo'l vokzalida viloyat hokimi E.Turdimov kutib oldi. Singapur parlamenti spikeri Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni, Shohi Zinda yodgorligi "Afrosiyob" muzeyi, Mirzo Ulug'bek rasadxona-si hamda "Boqiy shahar" majmuasida bo'lib, boy madaniy merosimiz bilan tanishdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ziyorat qildi. - O'zbekiston va Singapur 30 yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda va bu aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda, - deydi Sea Kian Peng. - Xususan, Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun 25 dan ortiq kompaniyalarimiz vakillaridan iborat delegatsiya mam-lakatingizda bo'lib turibdi. Forumda ikki davlat o'rtasida biznes aloqalarni yanada mustahkamlash niyatidamiz. Forum oldidan Samarqanddagi uzoq o'tmish va bugun mujassam tarixiy obidalar, yodgorliklarni ziyorat qildik va bu bizda katta taassurot qoldirdi.

F.RO'ZIBOYEV.

Hududlarda profilaktik hisobda turgan hamda tarbiyasi og'ir uyushmagan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qitish, bandligini ta'minlash maqsadida o'n kunlik "Jasorat maktabi" harbiy o'quv-yig'iniga jalb qilinmoqda.

Samarqand shahridagi Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida viloyatning shahar va tumanlaridan kelgan 100 nafar yosh o'quv-yig'inining navbatdagi mavsumida ishtirok etdi.

Yig'in davomida ishtirokchilar harbiy-o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va biznes saboqlar, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari, psixologik, motivatsion treninglarga jalb qilindi hamda "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari o'tkazildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ham yig'in ishtirokchilari bilan muloqot o'tkazib, yoshlarning ishga, o'qishga kirish, tadbirkorlik qilish, yer ajratish, kasb-hunar o'rganish va imtiyozli kredit ajratish borasidagi murojaatlarini eshitdi.

Xususan, oqdayolik Saidmuhammadridixon Nasrullayev dehqonchilik qilish uchun yer so'radi va unga takroriy ekin uchun yer beriladigan bo'ldi. Ishtixonlik Farhod Turdimov IT yo'nalishida, payariqlik Javlon Eshtursunov esa maktabda ish boshlaydigan bo'ldi.

- Yengil avtomashinalarni ta'mirlash qo'limdan



Hokim "JASORAT MAKTABI" ishtirokchilarini tingladi

keladi, - deydi pastdarg'omlik Sardor Lazizjonov. - Shu bois uchrashuvda avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ustaxonasi ochish uchun imtiyozli kredit asosida asbob-uskuna olishda amaliy yordam so'radim. Murojaatimni bank xodimlari o'rganib, tez fursatda hal etilishi ma'lum qilindi.

Uchrashuvda shunday murojaatlar ko'p bo'ldi va viloyat hokimi yoshlarni qiynab kelayotgan muammolar yechimi yuzasidan mas'ullarga topshiriq berdi, aksariyat masalalar joyida hal etildi.

Charos SAIDOVA.

INDALLOSINI AYTGANDA...

**Maqsud ASADOV,
professor:**

- Millatni, xalqni o'z ortidan ergashtira oladigan siymolarning o'ziga xos xususiyati - ularning qalbidagi erki va erksevarligida.



Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasida "Uzbekistan airways" aksiyadorlik jamiyati rahbariyati bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Unda ommaviy axborot vositalari, sayyohlik kompaniyalari, aviakassa hamda tadbirkorlik subyektlari vakillari ishtirok etib, mas'ullarga o'zlarini qiziqtirgan savol va takliflar bilan murojaat qildi.

Xususan, "Bo'ston travel" sayyohlik kompaniyasi vakili Ab-bos Hazratqulov ichki aviareyslarning biror ogohlantirishlarsiz qo'yilib-olinayotgani, bu esa turfirmalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, fuqarolarning noroziligiga sabab bo'layotganini aytdi. Mas'ullardan bunga izoh so'ralib, talab yuqori bo'lgan "Samarqand-Urganch" va "Samarqand-Farg'ona" reyslarini tiklash taklifi berildi.

Aviakompaniyaning marketing bo'limi boshlig'i Shuhrat Mirsaidovga

Ichki aviareyslar nega kamaymoqda?



ko'ra, ichki reyslarning qisqarishiga asosiy sabab reyslarning to'lmay qolayotganligi hamda kompaniyaning ziyonga ishlayotgani bo'lmoqda. Ayni bo'shliq xususiy aviakompaniyalar tomonidan to'ldirilayotgani, yaqin o'rtda vadiyga ham reyslar tashkil etilishi ta'kidlandi.

Tadbirda aviachipta sotish

masalasida mahalliy agentlarga noteng imkoniyatlar berilgani, talab yuqori bo'lgan reyslarning poytaxtdan Samarqandga ko'chirilmayotgani masalalarida ham murojaatlar bo'ldi. Mas'ullar ularning asosiy qismiga shu yerning o'zida javob bergan bo'lsa, ba'zi masalalar o'rganish uchun nazoratga olindi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, xususan, chekka mahalla va qishloqlarda markazlashgan ichimlik suvi tarmoqlarini qurish keyingi yillardagi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, o'tgan yili Payariq tumanida ham aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ancha ishlar amalga oshirildi. Biroq ayrim mahallalarda yashovchi aholi tomonidan yangi artezian quduqlardan chiqayotgan suvning ichishga yaroqsiz ekanligi haqidagi murojaatlar ko'payib qoldi. Hatto bu muammo xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida ham ko'tarildi.

O'tgan yili viloyat hokimi E.Turdimovning tuman-aholi muammolarini o'rganish maqsadida tashkil etilgan qabulida Boshcho'rosh va Guliston mahallalari fuqarolari yangi suv nasoslari o'rnatilganidan biroz vaqt o'tib, yana ichishga yaroqsiz suv chiqarayotgani haqida murojaat qilgan edi. Mazkur shikoyatlar "Samarqand suv ta'minoti" AJ mutaxassislari tomonidan o'rganilgan-da. Boshcho'rosh mahallasidagi suv inshooti qurilgandan so'ng oradan biroz vaqt o'tib, suvning qattiqligi darajasi o'zgarib ketgani aniqlangandi.

Boshcho'rosh mahallasida bo'lganimizda yangi suv inshooti ishlayotganini ko'rdik. 2,5 kilometrta tortilgan tarmoqda suv yo'q. Hududda 15 ta umumiy foydalanishdagi suv (kolonka) kranlari o'rnatilgan bo'lib, aksariyati singan yoki jo'mraklari olib tashlangan ekan.

- Yangi suv inshooti o'rnatilganida ko'p yillik suv muammosi hal bo'lganidan juda xursand bo'lgan edik, - deydi Boshcho'rosh mahallasi raisi Sharofiddin Shaymanov. - Oradan 6 oylaracha vaqt o'tganidan so'ng suv-

Payariqdagi ichimlik suvi muammosiga yechim bormi?

ning tarkibi o'zgarib, sho'rlanish boshlandi. Shundan so'ng aholi "Samarqand suv ta'minoti" AJ tuman filiali bilan shartnoma qilishni xohlamadi. Suvchilar esa ortiqcha xarajat qilishdan qochib, nasosni o'chirib qo'yishdi. Hozirda aholi o'z xonadonidagi quduq suvidan ichyapti. Mahallaning 178 xonadonidagi quduq berishga mo'ljallangan mazkur suv inshootida 110 metr chuqurlikda artezian qazilgan, ammo ayni vaqtda ishlamasdan turibdi. Aholi esa ichimlik suvi yo'qligidan qiynalmoqda.

- Qo'shni Sohibkor qishlog'ida sobiq ittifoq davridan qolgan eski suv inshooti bor edi, - deydi Boshcho'rosh mahallasida yashovchi Farhod O'sarov. - Ko'p yillar davomida shundan suv ichib kelganmiz. Biroq 25 yildan buyon motori ishdan chiqib, suv bermay qo'ydi. Ana shu inshootni qayta ishlatish masalasini ko'rish kerak. Chunki uning suvi toza va sifatli edi. Eski inshoot bilan oramizdagi 800 metr masofaga quvur tashlab, yangi qurilgan tarmoqqa ulab berilsa, yaxshi bo'lardi.

Mutaxassislarning fikricha, vaqt o'tishi bilan yer ostidan olinayotgan suvning ham tarkibi o'zgarib turadi. Shuning uchun suv tarkibini har oyda bir marta tekshirib, bakteriyalarning holati, yerning sho'rlanish darajasini o'rganish lozim. Agar xulosalar yaxshi chiqmasa, suvni maxsus moddalar yordamida zararsizlantirib, so'ngra aholiga yetkazib berish zarur.

- Maxsus laboratoriyaning dastlabki xulosalariga ko'ra, mazkur suv nasosidan chiqqan suvning qattiqligi 8 daraja bo'lgan edi, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" tuman filiali direktori Husniddin Sayfiyev. - Aholi 6 oy davomida shu suvdan ichib turdi.



Ular bilan shartnoma tuzamiz deganimizda aholi bu suvning qattiqligini aytib, bitim tuzmadi. Hozirda bu mahallaning korxonamizdan 6 million so'mdan ziyod qarzi bor. Aholi suv qattiq ekan, deb o'z hovlisidagi qo'lbola kran va quduqlardan foydalanib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, maxsus mashinalarda haftada bir marta ichimlik suvi yetkazib beryapmiz.

- Yangi qurilgan inshootdan chiqayotgan suvning sifati yomonlashib ketgan, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" AJ bosh muhandisi Tolib Siddiqov. - Qo'lbola kranlardan olinayotgan suvning qattiqligi darajasi ham 15-16 darajaga yetgan. Bu ichishga mutlaqo yaroqsiz hisoblanadi. Bunga asosiy sabab yer ostida turli mi-

[↓ Bu haqda sessiyada aytilgandi](#)

nerallar va tuzning haddan tashqari ko'pligi, suvning sho'rlanishidir. 110 metr chuqurlikdan chiqayotgan suvning sifati ham 11 darajani ko'rsatmoqda. Bu ham texnik suv hisoblanadi. Ayni vaqtda ichimlik suvi va filtrlar bo'yicha ishlaydigan mutaxassislar bilan kelib o'rgandik va inshootga maxsus tozalovchi uskunalar o'rnatishga qaror qildik. Tez kunlarda Xitoyda ishlab chiqarilgan zamonaviy filtrlar olib kelib o'rnatamiz.

Tumanning Guliston mahallasidagi Tepalik qishlog'ida 2014-yilda qurilgan suv inshootidan chiqayotgan ichimlik suvi qattiq va sho'rligi tufayli aholi turli kasalliklarga chalinayotganligi to'g'risida murojaatlar bo'lgan edi. Ma'lum bo'lishicha, 2023-yilda viloyat hokimining tashabbusi bilan mazkur qishloqda yangi suv inshooti qurilib foydalanishga topshirilgan. Bugungi kunda mazkur suv inshooti qishloqdagi 140 ta xonadonni toza ichimlik suvi bilan ta'minlamoqda.

- Bir necha yildan buyon quduqlarimizdan sho'r suv chiqqanligi sababli ichimlik suvi masalasi biz uchun asosiy muammo edi, - deydi Tepalik qishlog'ida yashovchi Asatullo Nasrullayev. - Viloyat hokimiga murojaatimizdan so'ng investitsiya mablag'lari asosida yangi suv inshooti qurib berildi. Barcha xonadonlarga toza ichimlik suvi yetib bordi.

Biroq qishloqdagi xonadonlarda quduq yoki qo'lbola kranlar bor. Suv ichishga yaroqsiz bo'lgani uchun aholi faqat chorva mollari va tomorqasini sug'orishga ishlatadi. Hozirgacha 78 ta xonadon va "Samarqand suv ta'minoti" o'rtasida ichimlik suvi bo'yicha shartnoma tuzilgan. Toza ichimlik suvi masalasi asosiy muammomizga aylanmoqda. Suv resurslarining kamayishi va tanqisligidan tegishli xulosalar qilib, suvni tejash va ratsional ishlatishni o'rganishimiz zarur. Kundalik hayotimizda suvni behuda, maqsadsiz isrof qilishga chek qo'yishimiz kerak.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Samarqand viloyati hokimining QARORI

Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida elektron onlayn–auksion savdolariga qo'yiladigan yer maydonlarida ijara huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6243-son farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 71-son qaroriga muvofiq, xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq to'qson sakkizinchi sessiyasining VI-98-32-7-0-K/24-son qarorini inobatga olib, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer maydonlarini elektron onlayn-auksion orqali ijara berishning minimal qiymatini belgilash maqsadida **QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Egamov), Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov)ning Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijara huquqi bilan elektron onlayn-auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining minimal qiymatini belgilash to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq, bir kvadrat metr yer maydonini ijara berishning minimal qiymati har bir tuman (shahar) uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlari qarorlari bilan tasdiqlanishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda:

yer maydonining maydoni (kv.m);

bir kvadrat metr yer maydoni uchun ijara berishning minimal qiymati, so'm/kv.m;

yer maydonini ijara berish muddati, yil;

yer maydonini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati, yer maydoniga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga oid xarajatlar (so'm) kabi mezonlar inobatga olinsin.

3. Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov) yer maydoniga bo'lgan ijara huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xarajatlari Vazirlar Mahkamasining "Davlat kadastr sohasida davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2014-yil 10-iyulda gi 186-son qarori talablariga muvofiq belgilanishini nazarda tutsin.

4. Shahar va tumanlarda tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish

uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan bir kvadrat metr yer maydonini elektron onlayn-auksion orqali ijara berishning minimal qiymati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) mazkur qaror rasman kuchga kirgandan e'tiboran "YERELEKTRON" AATda yer maydonlariga ijara huquqining minimal qiymati belgilangan tartibda qo'llanilishini ta'minlasin.

6. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (B.Negmatov), shahar va tuman hokimliklari yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer maydonlarini ijara berish maqsadida auksion savdolariga o'rnatilgan tartibda chiqarilishini ta'minlasin.

7. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (F.Xudoyqulov), viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (B.Negmatov)ga tasarruf etilgan yer maydonlaridan maqsadli va samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoring olib borish vazifalari yuklansin.

8. Viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (F.Xudoyqulov) mahalliy budjetga pul tushumlarining o'z vaqtida to'liq tushurilishini ta'minlasin.

9. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Mirzayev), "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi (N.Norbekov) ushbu qarorni Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini ta'minlasin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosarlari F.Abilov va A.Shukurov zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Viloyat hokimi

E. TURDIMOV

2024-yil 29-aprel

102-7-0-Q/24

Viloyat hokimining 2024-yil 29-apreldagi
102-7-0-Q/24-son qaroriga **ILOVA**

Samarqand viloyatining har bir tumani (shahar) uchun yer maydonini ijara huquqi asosida "Elektron-onlayn-auksion" orqali savdoga chiqarishning

MINIMAL QIYMATI

so'mda

№	Tuman (shahar) nomi	Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 26.01.2024-yildagi VI-95-4-7-0-K/24-sonli qaroriga asosan belgilangan qiymat 1 kv.metr (so'mda)	1 kv.metr yer maydonini ijara huquqi asosida "Elektron-onlayn-auksion" orqali savdoga chiqarishning minimal qiymati			
			1 000 (kv.m) gacha	1 000-10 000 (kv.m)	10 000-50 000 (kv.m)	50 000 va undan yuqori (kv.m)
1	Bulung'ur tumani		3 300	1 650	825	413
2	Ishtixon tumani		2 728	1 364	682	341
3	Jomboy tumani		3 300	1 650	825	413
4	Kattaqo'rg'on shahri		5 060	2 530	1 265	633
5	Kattaqo'rg'on tumani		2 772	1 386	693	347
6	Narpay tumani		3 300	1 650	825	413
7	Nurobod tumani		2 640	1 320	660	330
8	Oqdaryo tumani		3 300	1 650	825	413
9	Past Darg'om tumani		3 344	1 672	836	418
10	Paxtach tumani		2 684	1 342	671	336
11	Payariq tumani		3 300	1 650	825	413
12	Qo'shrabot tumani		2 640	1 320	660	330
13	Samarqand shahri		5 676	2 838	1 419	710
14	Samarqand tumani		3 344	1 672	836	418
15	Toyloq tumani		3 344	1 672	836	418
16	Urgut tumani		3 300	1 650	825	413

Izoh: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 22-bandiga asosan oxirgi tasdiqlangan yer uchastkasini ijara berishning minimal qiymati uning yangi qiymati tasdiqlanganiga qadar amalda bo'ladi.

Viloyat axborot-kutubxona markazida "Kitobsevar millat" shiori ostida IV Respublika "Kitobxonlik haftaligi" bo'lib o'tdi. Tadbirlarda ziyolilar, kitobxon yoshlar, turli soha xodimlari ishtirok etdi.

Viloyat axborot-kutubxonasiga kelgan Ichki ishlar vazirligining Samarqand akademik litseyi o'quvchilari, "Qalqon jaso-rat maktabi" nodavlat ta'lim muassasasi o'quvchilari bilan kutubxona bo'ylab ekskursiya tashkil qilindi. Mutaxassis-lar tomonidan kutubxonada yaratilgan sharoitlar, kitoblar olami, kutubxona loyihalari bo'yicha faoliyat yuritayotgan elektron baza haqida batafsil ma'lumot-lar berildi.

O'zbekiston Yozuvchilar hamda Jurnalistlar uyushmalari bilan hamkorlikda ijodkorlar Zuhrabegim Eshonqulovaning "Ulug'bekning nurli nigohi" nomli asari hamda Husniddin Fayozovning "Yoding jilosi", "Daryoi bepoyoni man" (Poyonsiz ummonim mening) she'riy to'plamlari taqdimoti bo'lib o'tdi.

Shuningdek, "Kitobxonlik haftaligi" doirasida Sadriddin Ayniy tavalludining 146 yilligi munosabati bilan xotira kechasi o'tkazildi. Tadbirda Samarqand tumanidagi 54-umumta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan S.Ayniyniing



"Kitobxonlik haftaligi": Qiziqarli o'tgani bilan esda qoldi

"Mardi sudxo'r", "Qori ishkanba" asarlaridan parchalar namoyish etildi.

Viloyat yuridik texnikumining "Eve-rest" va Ichki ishlar vazirligi Samarqand akademik litseyining "Renessans" jamoalari o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Viloyat "Buvijonlar maktabi" faollari ishtirokida "Qizlaringa nasihatlarim" nomli davra suhbatlari uyushtirildi.

"Kitobsevar millat" shiori ostida o'tgan tadbirlarda "El-merosi" tarixiy liboslar

teatri namoyishi o'tkazildi. Unda Samarqand hududida turli tarixiy davrlarda yashagan millatlarning liboslar to'plami ishtirokchilarda iliq taassurot qoldirdi.

Haftalik bir-biridan qiziqarli tadbirlar bilan esda qoldi. Turli tashkilot va muassasalar tomonidan markazga kitoblar sovg'a qilindi. Tadbirlarda faol qatnashgan ishtirokchilarga viloyat axborot-kutubxona markazi tomonidan esdalik sovg'alari va tashakkurnomalar topshirildi.



"Tadbirkorga ishonib, ko'chada goldik"

Yoxud Urgutda 8 yildan beri ijrosi ta'minlanmayotgan qarordan najot kutib

Tahririyatimizga Urgut tumani Mo'g'ol mahallasi faollaridan biri murojaat qildi. Xat mazmuniga ko'ra, tuman hokimining 2016-yildagi qarori bilan mahalla fuqarolar yig'ini joylashgan eski bino va unga tutash yer mahalla fuqarolar yig'ini, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalariga moslashtirib, 2 qavatli qilib qayta qurish sharti bilan tadbirkorga berilgan. Bunda binoning birinchi qavatini mahalla uchun ma'muriy xonalarga bo'linishi kerak edi. Biroq tadbirkor shartlashuv qoidalariga amal qilmay, qurgan binosini to'liq egallab olgan. Biz murojaatni joyida o'rganish maqsadida Mo'g'olga bordik.

Tuman markazidan 13 kilometr uzoqlikda joylashgan mahallada 6 mingdan ziyod aholi istiqomat qilar ekan. Uylarning zich joylashganligi, ichki ko'chalarining tortligidan bilsa bo'ladi, hududda yer masalasi juda og'ir. Balki shuning uchun ham tadbirkor oson qo'lga kiritgan yerini bo'lishgisi kelmayotgandir. Unda qonun ustivorligi qayerda qoladi? Shunday mulohazalar bilan Mo'g'ol mahallasi faollari vaqtincha ma'muriy bino sifatida foydalanayotgan masjidga yetib bordik. Eski va ko'rimsiz yotibdirgan bitta xonasida mahalla yetilligi o'tiribdi. Ularga murojaat bilan kelgan fuqarolar xonaga sig'masligi bois tashqarida turib, navbat bilan kirib chiqishmoqda.

— Kunlar isib, ishimiz yengilashdi, ko'p vaqtimizni ko'chada o'tkazaymiz, qishda vaziyatimiz ayanchli edi, - deya izoh beradi Mo'g'ol mahalla fuqarolar yig'ini raisi Orzimurod Hamidullayev. — Mahalla faollari 2016-yildan beri binosiz, sarson yuribdi. Men 2022-yilda rais bo'lganimdan keyin aniq bir manzilga ega bo'lish uchun shu yerga ko'chib keldik. Ungacha ko'chada, ba'zida fuqarolarning uyida turib ishlashimizga to'g'ri kelgan. Mahalla yetilligi joriy etilgach, bu xonaga ham sig'may qoldik. Nima ham derdim, tadbirkorga ishonib, shuncha yildan beri ko'chada yuribmiz.

Murojaatga asos bo'lgan hujjatlar bilan tanishamiz. Tuman hokimining 2016-yil

qurmagan ko'rsatilgan. Xo'p, tadbirkor hokimning qaroriga tayanib qurilish qilgan deylik, lekin 2 qavat o'rniga 3 qavatli imorat ko'targan-ku! Nahotki, shuncha yillar davomida noqonuniy qurilish va hokim qarorining noto'g'ri ijrosini bartaraf etib bo'lmadi? Hech bo'lmasa, qaror ijrosi ta'minlansa ham, ta'minlanmay qolsa ham manfaat bilan chiqayotgan tadbirkor aqalli mahallani rozi qilsa bo'lardi-ku?

Bu savollarga tadbirkorning o'zidan javob olishga urinib ko'rdik. Ammo uni topishning imkonini bo'lmadi. Uning o'rniga o'sha binodagi savdo do'konini yuritayotgan akasi Normurod Ko'nilov javob berdi. Unga ko'ra, mahallaga birinchi qavatdan (u birinchi deb do'kon ostidagi qavatni nazarda tutyapti) joy berilgan. Biroq faollar bu joy ularga to'g'ri kelmasligini aytib, qabul qilishdan bosh tortishgan. Biz uni ko'zdan kechirdik. Ayni damda omborxona vazifasini o'tayotgan bu qavat aslida ham omborxonaga moslab qurilgan. Oynalari deyarli yo'q, isitish, ventilyatsiya tizimi ham. Har qancha zeb berilmasin, u biz ko'rib o'rgangan keng va yorug' mahalla binolari-ga o'xshamasligi aniq. Agar tadbirkor bu qavatni omborxona emas, birinchi qavat deb ko'rsatayotgan bo'lsa, o'z tili bilan hokim qaroriga zid ravishda 3 qavatli imorat ko'targanini tan olyapti.

Normurod akaga fikrlarimizni aytдик. U nizoli holatni bartaraf etish maqsadida mahalladagi qarovsiz yotgan davro yana bir imorat qurayotgani, o'sha bino mahallaga berilishini aytdi. Biz uning hamrohligida o'sha joyni ham borib ko'rdik. Haqiqatan ikki qismdan iborat binoning qurilish ishlari boshlangan. Biroq bu yer kimga qarashli, imorat ko'tarish uchun biror ruxsat yoki tasdiqlangan loyiha bormi, deb so'raganimizda, qiziq javobni oldik. Tadbirkorga

ko'ra, bu yerda imorat qurish uchun unga tuman hokimligi mas'ullari og'zaki ruxsat bergan. Hujjat-chi deganimizda, hujjatni keyin qilib berishar ekan, dedi u. Ana ahvol.

Holatga aniqlik kiritish, kim hujjat qilib berishini aniqlash uchun tuman arxitektura va qurilish bo'limi boshlig'i Farrux Jamolov bilan bog'landik. U mahalladagi muammodan, undan ham qizig'i, tadbirkor hujjatsiz yana bir imorat qurayotganidan xabari borligini, bu mahalla va tadbirkor o'rtasidagi nizoni bartaraf qilish uchun o'ylab topilgan chora ekanligini aytdi. Faqat keyinchalik mahalla faollari fikridan qaytgan emish. Endi mazkur yer va imorat ham tadbirkorga qolar ekan-da, degan fikr keladi xayolga. Hokimning bir qarori ijro qilinmay turib, noqonuniy qurilish uchun yana bir yangi qaror va hujjatlar chiqarish mumkinmi? Biz shu masalada tuman hokimligining yuristidan ham izoh olmoqchi bo'ldik. Biroq ayni vaqtda ham omborxonaga vakant ekanligi, savollarimizga qonun nuqtai nazaridan javob berishga vakolatli mas'ul yo'qligini aytishdi. O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limiga chiqdik. Bo'lim bosh mutaxassisi Nurmuhammad Hodiye mahallaning manfaatlarini himoya qilish uchun sudga yana bir da'vo arizasi bilan murojaat qilish masalasi ko'rilayotgani, uyushma jarayonda mahallaga ham huquqiy, ham amaliy ko'mak berishga tayyorligini aytdi. Bu quvonarli albatta, faqat shuncha ko'makchi va qonun himoyachilari bo'la turib, yechimi aniq bo'lgan muammo 8 yilda ham bartaraf etilmagani g'alati.

E'tiboringizga bir murojaat asosida olib borgan surishtiruv va kuzatuvlarimiz tafsilotlarini havola qildik. Mas'ullar uni o'rganib, qonuniy choralarni belgilaydi, degan umiddamiz. Kutamiz.

Asqar BAROTOV.

Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 18–martdagi PQ–168–son qaroriga muvofiq, savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan davlat mulki obyekti bo'yicha

S A V D O L A R E ' L O N Q I L I N A D I

	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan sobiq ma'muriy bino	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi	Narpay tumani, A. Navoiy MFY, Beklar ko'chasi, 26-uy	0,1532	429	1 003 778 000,0	31.05.2024 y.	31.05.2024 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolar-da qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionga qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy kabinet"lari orqali kirib o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkga tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar bino haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerdan ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosiga qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuboril-gach, ishtirokchining "Shaxsiy kabineti"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar e-auksion.uz saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabineti"ga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auk-sionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksion tanlanadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tas-diqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionga qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqami beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilaridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyin-gi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birontasi tomonidan tas-diqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayon-nomani avtomatik tarzda shakllantirgan holda yakun-lanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnoma-si Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat pullarini qaytarish ishtirok-chilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyin-gi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil:

Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni 1-"A"uy, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini xusu-siylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini mu-vofiqlashtirish shu'basi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

+99866-233-96-64, +99891-537-32-12, +99899-447-17-70.

Faks: +99866-233-73-54.

Facebook dagi rasmiy sahifa: [Sam Dav Aktiv](#)

Veb-sahifa: [privatization.davaktiv.uz](#)

Internet tarmog'ida veb-sayt: [samarqand@davaktiv.uz](#)

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxona va tashkilot rahbarlari diqqatiga!

SAMARQAND IQTISODIYOT VA
SERVIS INSTITUTI



2023/2024–o'quv yilida bitiruvchi bakalavr va magistrnlarni ishga taqsimlashga kirishganligini ma'lum qiladi.



Joriy yilda institutni tamomlayotgan bitiruvchilarga turli korxona va tashkilotlardan 250 ga yaqin buyurtmalar kelib tushgan. Bitiruvchilarni ishga taqsimlashda respublikamizning barcha hududlarini qamrab olish, yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoji bor korxonalarning talab-larini qondirish va bitiruvchilarga taqsimot jarayo-nida tanlash imkoniyatini kengaytirish maqsadida institut tomonidan buyurtmalar qabul qilish davom etmoqda. Institutni tamomlayotgan kadrlarga ehti-yoji mavjud korxona rahbarlari talabnoma va so'rov xati bilan 2024-yil 14-maygacha institut rek-toratiga murojaat etishlari mumkin. Talabnomada buyurtmachining rekvizitlari (pochta manzili, tele-foni) hamda taklif etilayotgan lavozim to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq ko'rsatilishi lozim.

Shuningdek, mutaxassislarga ehtiyoji bor bar-cha korxona va tashkilotlarni bitiruvchilar bilan bevosita suhbat o'tkazish, ishga tanlab olish va shartnomalar rasmiylashtirish uchun 2024-yil 14-may kuni institutda o'tkazilayotgan "Karyera kunlari" mehnat yarmarkasi tadbirlariga taklif etamiz.

Bitiruvchilar to'g'risidagi batafsil ma'lumot bilan institut veb-sayti(<https://sies.uz>) da "Bitiruvchilar" bo'limida tanishish mumkin.

Sizning e'tiboringizga yo'nalishlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni ilova qilamiz.

Ma'lumot uchun telefon:
+99866-231-12-53
SAMARQAND IQTISODIYOT VA
SERVIS INSTITUTI

Manzil: Samarqand shahri
AmirTemur ko'chasi, 9-uy.

e-mail: sies_info@edu.uz

2023/2024-O'QUV YILIDA BITIRUVCHI BAKALAVRLAR TO'G'RSIDA MA'LUMOT

t/r	Bakalavr yoʻnalishlarining nomi	Jami bitiruvchilar soni	Shu jumladan, viloyatlar boʻyicha															
			Qoraqalpogʻiston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Sirdaryo	Surxondaryo	Toshkent viloyati	Fargʻona	Xorazm	Toshkent shahri		
	KUNDUZGI																	
1	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	221	1	5	-	6	9	6	3	175	2	2	3	3	2	4		
2	Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	79	2	1	3	4	4	4	1	51	2	3	3	1	-	-		
3	Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	46	2	1	-	5	-	5	2	27	2	-	-	1	1	-		
4	Moliya va moliyaviy texnologiyalar	131	-	4	5	9	11	6	-	87	1	1	1	3	2	1		
5	Bank ishi va audit	87	1	2	1	5	6	5	1	61		2	1	1	-	1		
6	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	126	1	-	6	4	7	7	3	95	1	1	-	-	-	1		
7	Inson resurslarini boshqarish	33	1	-	2	2	1	1	-	22	-	1	2	-	1	-		
8	Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi	49	-	2	1	1	3	1	-	34	2	1	2	1	1	-		
	KECHKI																	
9	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	38	-	-	-	1	1	-	-	36	-	-	-	-	-	-		
	IKKINCHI MUTAXASSISLIK																	
10	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	93	-	-	-	2	2	2	-	84	1	-	-	-	-	2		
11	Moliya	19	-	-	-	-	1	1	-	17	-	-	-	-	-	-		
12	Bank ishi	13	-	-	-	-	-	1	-	11	-	-	-	-	-	1		
13	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	18	1	-	-	-	1	2	-	14	-	-	-	-	-	-		
	SIRTQI																	
14	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	269	-	-	2	15	3	35	-	199	1	2	1	1	3	7		
15	Bank ishi	71	-	-	1	9	-	18	-	40	-	1	-	-	1	1		
16	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)	359	-	1	2	18	1	19	-	306	1	-	2	-	2	7		
	Jami	1652	9	16	23	81	50	113	10	1259	13	14	15	11	13	25		

2023/2024-O'QUV YILIDA BITIRUVCHI MAGISTRRLAR TO'G'RSIDA MA'LUMOT

t/r	Magistratura mutaxassisliklarining nomi	Jami bitiruvchilar soni	Shu jumladan, viloyatlar bo'yicha															
			Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Sirdaryo	Surxondaryo	Toshkent viloyati	Farg'ona	Xorazm	Toshkent shahri		
1	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	5	-	-	-	-	-	-	-	5	-	-	-	-	-	-		
2	Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	3	-	-	-	1	-	-	-	2	-	-	-	-	-	-		
3	Davlat moliyasi va xalqaro moliya	4	-	-	-	-	-	-	-	4	-	-	-	-	-	-		
4	Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish	3	-	-	-	1	-	-	-	1	-	-	-	-	1	-		
5	Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)	6	-	-	-	-	-	-	-	6	-	-	-	-	-	-		
Jami:			21	0	0	0	2	0	0	18	0	0	0	0	1	0		

HAQIQIY HISOBLANMAYDI!

Davlat mulki qo'mitasi Samarqand viloyati bo'yicha hududiy boshqarmasining 1999-yil 3-apreldagi 129-Pa-son buyrug'iga asosan, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli Samarqand shahri Amir Temur ko'chasidagi 24-uyning sahni 19,0 kv.metr bo'lgan xonasi uchun Nigmatov Jamshe Xamroqulovichga 1999-yil 9-aprel kuni berilgan 90-sonli mulkiy huquqini tasdiqlovchi davlat orderining asl nusxasi yo'qolganligi sababli haqiqiy emas deb topilsin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi.

DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Axmedjanov Maksud Mukumjanovichga (2023-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xusainova Mayramga (2019-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "MAROKAND TRAVEL SYSTEM" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305068590) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TUZATISH KIRITILDI

"Zarafshon" gazetasining 2024-yil 27-aprel 50(23.927)-soni 3-sahifasida "TANLOVDA QATNASHING" sarlavhasi ostida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining kafedralar bo'yicha bo'sh lavozimlarga tanlov e'loni chop etilgandi. E'londa:

Kafedra katta oqituvchisi lavozimiga:

- "Xorijiy tillar" kafedrasida - (ingliz tili mutaxassisligi bo'yicha) - 1 ta o'rinni qismi "Xorijiy tillar" kafedrasida - (fransuz tili mutaxassisligi bo'yicha) - 1 ta o'rinni deb o'qilsin.

Mulohaza uchun mavzu

Qadimda bir boy bo'lgan ekan. Odamlar undan shaharga suv olib kelishda yordam so'rashibdi. Boy xalqning ko'magi bilan shaharga suv olib kelibdi. Suv kelgach shahar yanada obod bo'lib, dov-daraxtlar ko'payibdi. Ko'plab kishilar boyning himmatidan minnatdor bo'lib to'y-ma'rakadan qoldirmas, hurmatini joyiga qo'yishsa, ayrimlari suvni faqat boy emas, xalq birlashib olib keldi, deyishar-kan. Shunda shayton boyning qulog'iga shivirlab, "Sen ariq qazdirmaganingda suv yo'q edi, senodlik ham bo'lmasdi, ish bitgach, ular buni hurmat qilmayapti", derkan. Boy ham shaytonning gapiga kirib, odamlarga "Men ariq qazib, suv olib keldim", deb minnat qilarkan.

Ulamolar aytgan ekanlarki, kim qilgan yaxshiligini minnat qilsa, noshukur bo'ladi, kim o'z amalidan g'ururlansa, ajri ketadi.

MINNAT ISHNING ZAVOLI

Ko'nglini sindiradigan, yurakni bezdiradigan narsalar ichida shundayi borki, u oralagan joyda albat-ta, dilsiyohlik, ko'ngil xiralik va albatta, sovuqchilik paydo bo'ladi. Bu shubhasiz - ta'na!

Abdulla aka tahririyatga ishga kelib tanishgan birinchi tadbirkorlardan biri kattagina korxonaning egasi edi. Aytishicha, ko'p yillar avval bizga o'xshab davlat idorasida ishlagan va maoshidan ma'lum qismini sar-moya uchun ajratib qo'yishni odat qilgan. Bu vaqtda bozorni, xaridorni, talab va taklifi o'rgangan. O'zi iqtisodchi emasmi, surishtirib, kichik uskuna sotib olib, sexda xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni boshla-gan. Bir yil o'tmasdan yana boshqa yo'nalishda ham sex tashkil qilgan. Shunday qilib, besh yilda o'ndan ortiq yo'nalishda mahsulot ishlab chiqaradigan sexlar tarmog'ini yaratibdi, lekin foydaning ma'lum qismini ajratib qo'yishni kanda qilmagan ekan. To'plangan pulni muhtojlarga uy-joy qurish, o'qish pulini to'lashga sarflagan. Har bir xodim o'z rizqi bilan keladi. Har ban-danining rizqini Alloh beradi, bunda suvgan qulini yax-shilikka doxil qilib qo'yadi, der edi. U kishi bilan keyingi uchrashganimda o'z kuchi bilan kattagina korxona tashkil qilgani, farzandlari ehtiyojini to'liq ta'minlab, nu-fuzli oliygohda o'qitayotganini aytgan edi. O'ndan ortiq kichik sexlarni shogirdlar, muhtojlar va yosh qiziquvchi tadbirkorlarga hadya qilib yuboribdi.

Yaxshi o'qish uchun shaharda yashash shart emas



Bundan 6 oy oldin Qo'shrabotning Qo'shog'och qishlog'ida yashovchi do'stimnikiga mehmonga bordim. U bilan bugungi hayo-timiz, farzandlar kelajagi xususida miriqib suhbatlashdik. Choy-poyimizdan xabar olib turgan o'g'li Shahriyorni savolga tutdim:

- Qanday orzularing bor? Qaysi kasb egasi bo'lishni istaysan?
- Hali bir qarorga kelmadim, - dedi u biroz o'ylanib turib.
- Nechanchi sinfda o'qiyapsan?
- 10 sinfga o'tdim.
- E, vaqt kam qolibdi-ku! Ingliz tilini yaxshi bilasanmi?
- ...
- "To be" fe'lining hozirgi zamon shakllarini aytib ber-chi!?

- ...
- Nega jimsan? Mening o'g'lim ham sen qatori, ancha tili kelishib qolgan.
- Ha, shahardagi maktablarda yaxshi o'qitadi-da.

O'g'lim faqat maktabda emas, bir necha yildan beri qo'shimcha to'ga-raklarda ham chet tilini o'rganishga harakat qilayotganini aytmadim.

- O'qiyman degan bola qishloqdayam o'qiyveradi, bu bahona bo'lolmaydi, - dedim afsuslangandek bosh chayqab.
- Ey, uyaltirib qo'yding-ku, ulim, - dedi do'stim biroz jahl bilan.

- Urishmang, jo'ra! Hali bu yigit shu-naqa zo'r odam bo'ladiki, hamma havas qiladi.

- O'qiyman, - deb va'da berdi Shahriyor ham.
Oradan bir oy o'tib, bir ish bilan yana shu do'stimnikiga birrovga kirib chiqishimga to'g'ri keldi. Ancha uzoqda tokzorining adog'ida ketmon chopayot-gan Shaxriyor ishini tashlab yugurib kelib, salom berdi:

- Assalomu alaykum, bobo (biz tomon-da bolalar otasining o'rtoqlarini shunday atashadi).

Salom-alikdan keyin u menga ingliz tilini mustaqil o'rgana boshlagani, tushunmay qolgan yoshlarini maktabdagi o'qituvchisidan so'rab o'rganayotganini aytdi. "To be" fe'lining hozirgi, kelasi va o'tgan zamon shakllarini va ularga bittadan misollar ham keltirib, meni hayron qoldirdi.

Shoshib turganim uchun keyin-roq alohida suhbatlashishimizni aytib, yo'lga chiqdim. Shu kuni kechga yaqin do'stimga qo'ng'iroq qilib, o'g'lining qiziqishi kuchli ekanligini, imkoni bo'lsa, qo'shimcha to'garaklarga qatnasa, ingliz tilini yaxshi o'zlashtirishi mumkin-ligini aytdim.

Yaqinda do'stim holi-jonimga

MINNAT nima?



Yillar o'tib, Abdulla akaning yurak xuru-jidan olamdan o'tgani-ni eshitdim. U kishi-dan yaxshilik ko'rgan odam shunchalar ko'p ekanki, buni keyin-roq bildim. Abdulla akaning o'zi ham "Ishlarimning rivojlan-ishi xayriya, savob va miskinlarning duosi tufayli", der edi. Ya-qinda Abdulla akaning korxonasiga bordim, o'g'li boshqarayotgan ekan. Otasi eshikdan kelgan har qanday odamga shirinso'z, xushmuomala edi, o'g'li uning teskarisi. Qo'rsligi tufayli korxona ham deyarli o'txab qolish arafasi-da turibdi. Berayotgan maoshi, yaratilgan sharoitni minnat qilaverganidan tajribali ishchilar boshqa korxonalarga ketib qolgan. Abdulla aka muhtoj paytida uy-joy qurib bergani, o'qishi uchun pul to'lagani hurmatidan bir nechta ishchi hamon shu yerda ishlamoqda. Otasi hayotligida doimiy yuboril-gan xayriyalarni ham to'xtatgan, hadya qilib bergan sexlarni ham olib qo'yib, o'zi ham, boshqalar ham foydalanmay, eshiklab yotibdi. Mashaqqatli mehnat bilan topilgan hurmat, hotamtoylik, ishbilarmonlik o'g'lining minnati bilan yo'q bo'ldi.

ALLOMALAR MINNATDAN QANDAY QUTULISHGAN?

Fariddin Attorning "Tazkiratul avliyo" asarida yozilishicha, shayxga bir kishi hadya keltirsa, olmasdi. Shayx shariatga muvofiq uzr aytib: "Hadyangni qabul qila olmayman, chunki sening do'sting mendan ta'lim olmoqda, agar hadyangni olam, shu moling sabab bo'lib, do'stingga nisbatan maylim ortgay", debdi.

Bu holatni shunday izohlash mumkinki, hammaga xolislik bilan birdek dars o'tayotgan mudarris bir kishining hadyasi sababli uning do'stiga mayli ortadi, uni boshqalarga nis-batan yaxshiroq o'qita boshlaydi va shu joyda noxolislik paydo bo'ladi. Bu hol bizning bugungi ta'lim tizimimizga ham mos tushadi. Agar biror ishga manfaatdorlik, tama aralashsa, u yerdan xolislik ko'tariladi. Demak, xolislik-ni ziddi minnat yuklash, noxolislik, g'arazgo'ylik, barakasizlik, tamagirlikdir.

Alisher Navoiy "Mahbubul qulub" asarida xolislik-ni eng yuksak insoniy fazilat sifatida sanaydi. Abu Hanifa hazratlari jaziramada o'tkazilgan ma'rakada o'zlari qarz bergan odamning uy devori soyasida o'tirmaydilar. U zotdan nima uchun kun tig'idan o'zini soyaga olmayotganini so'rasalar, ortiqcha tamagirlik, minnat yuklash bo'lib qoladi deb qo'rqa-man, degan ekanlar.

Minnat kishilarni bir-biridan uzoqlashtiradi. Adi-bimiz Abdulla Qahhor rafiqasi Kibriyo Qahhorovaga maoshini ro'zg'orga sarflamasligini uqtirar ekan. "Ayol kishi har qanday holatda ham ayol. Qurilayot-gan imoratga bitta mix qoqsa ham, butun boshli uyni men qurdim, deb ta'na qiladi. Bir kuni ayol-ligingizga borib, minnat qilib yurmang tag'in", degan ekan.

YAXSHILIK QILGINU SUVGA OT

Yaxshilikni minnat qilish, kimgalradir saxo-vatpesha ekanligini ko'rsatish bugungi kunda juda ko'payib ketdi. Qiynalgan odamga arzimasa

Ramazon hayiti kuni edi. Peshinda to'satdan kichik qizimning tobi qochdi. Turmush o'rtog'im bi-lan o'zimizcha mulolaja qildik. Ammo farzan-dimizning ahvoli battar yomonlashdi.

Kech tushib qolgan, usti-ga-ustak bayram kuni edi. Soat o'nlarda tez tibbiy yor-damga qo'ng'iroq qildik. Ular farzandimni tekshirib ko'rdi va zudlik bilan shifoxonaga olib borish lozimligini aytdi. Shoshib qoldik, qizalog'im endigina bir yoshdan oshgan, uydagi ikki yarim yoshli yana bir qizim bor, mening ko'zim ojiz, 1-guruh nogironiman.

Turmush o'rtog'im tez yordam mashinasida farzan-dimizni shifoxonaga olib ketdi. Katta qizim bilan uyda qoldik. Shoshganimdan qizalog'imning so'rg'ichini ham berib yubor-mabman. Ular ketganidan ko'p vaqt o'tmasdan qo'shnimiz Sadoqat opa qo'ng'iroq qildi.

Yangi jurnal nashr qilindi

Samarqandda xalqaro maqomdagi "Buyuk Turon" ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-publit-sistik, ommabop va tadqiqotlar jurnalining ilk soni chop etildi. Jurnalning mavzu ko'lami keng bo'lib, unda turkiy xalqlar tarixi, ta'lim-tarbiya, oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq yangiliklar, yurtimiz-da turizm sohasi rivoji, tibbiy ta'lim pedagogi-kasi, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va uning jahon sivilizatsiyasi tarixida tutgan o'rni, Abu Said Mahzum va Mirzo Ulug'bek rasadxo-nasi, samarqandlik shoir Orif Gulxaniy, akademik Boturxon Valixo'jayev haqidagi qiziqarli ma'lu-motlar, Normurod Karimzoda, Nusrat Rahmat,

Zubaydulla Ibragimov, Asadulloh Ismoilzo-da, Sallah Allazov, Dilshodi Farhodzod, Abdunabi Boboyor, Buzurgmehri Bahodur, Xoliq Hakimov kabi ijodkorlarning she'r va hikoyalari berilgan.

Jurnalda to'rt tilda chop etilgan ilm-ma'ri-fat, san'at va adabiyot, tarix va boshqa so-halardagi materiallar o'quvchilarni befarq qoldirmasligi shubhasiz.

Tolib JO'RAYEV.

Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi

"Tez yordam mashinasi sizlarni-kiga keldimi, tinchlikmi, nima bo'ldi?" deb hol-ahvol so'radi. Unga bo'lgan voqeani aytdim. Qo'shnim qanday yordam kerak bo'lsa, tortinmasdan aytaverishim mumkinligini, agar qo'rqadigan bo'lsam, qizlari Ruxshonani biznikiga chiqari-shini aytdi. Qo'shnimning bu gaplari ko'nglimni ko'tardi, hatto ko'zimga yosh keldi. Shu payt turmush o'rtog'im qo'ng'iroq qilib, qizimiz nazoratda bo'lishi kerakligi sababli shifoxonada qolishini aytdi. So'rg'ichini so'rayotganligi, do'konga borib kelishi kerakligini aytib, telefonni o'chirdi.

Telefon qo'shagini qo'yganimdan keyin qizim-ga yana bir qancha narsalar berishim kerakligini o'yladim. Yodimga qo'shnimning gaplari tushdi. Kech soat 12 bo'lishi-

ga qaramay, ularga qo'ng'iroq qildim va yordam so'radim.

Men kerakli anjomlarni sumkaga soldim. Sadoqat opa eshigimizni taqillatdi va tayyorlagan narsalarni beri-shimni so'radi. Sumkani ko'rgan qo'shnim, "Bir daqiqa kutib turing", dedi-da, uyiga chiqib ketdi. Ko'p o'tmasdan qaynoq suv solingan ter-moscha bilan tushib keldi va shifoxonada qaynagan suv kerak bo'lishini aytib, shuni ham sumkaga solib qo'yaylik, dedi.

Qo'shnimning olijanobli-gi meni lol qildi. Albatta, bu ko'pchilik uchun oddiy holdek tuyular. Ammo o'sha payt-da yordamga muhtoj bo'lib turgan mendek ona uchun bu ta'riflab bo'lmas yaxshilik edi.

Mohigul UMIR qizi, SamDU tayanch doktoranti.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 311 nusxada chop etildi. Buyurtma 232. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda